



O'ZBEKISTON SSR KONSTITUTSIYASI ILK NAMUNALARI YOKI KONSTITUTSIYALARDA SAYLOV HUQUQLARI

Ahmedov Abdulhay Toshto`xtaevich

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o`qituvchisi

Sarvinoz Shokirova Isroiljon qizi

Andijon davlat pedagogika insituti "O`zbek tili va adabiyoti " yo`nalishi talabasi

Tel: +998881651756

Annotatsiya: Ushbu maqolamda asosan "O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi" tarixi, uning ilk namunalari va undagi saylov huquqlari to`g`risida so`z yuritiladi yangilangan konstitutsiyadagi o`zgarishlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Konstitutsiya, Turkiston ASSR, O`zbekiston SSR, saylov, huquqiy maqom, syezd hujjatlari, saylash va saylanish huquqi.

Bosh qomusimiz yaratilishining muhim va ayni chog`da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo`ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Masalan tarixga nazar solib konstitutsiyamizning ilk namunalari bilan tanishib chiqamiz:

1. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasi 1922 yilda qabul qilingan.

Konstitutsiya RSFSRning 1918-yildagi Konstitutsiyasiga asoslanadi.

Bunda Umumbuxoro xalq deputiari syezdi oliy hokimiyat organi hisoblanib, 2 ming kishidan bir deputat miqdorida saylangan.

2.O`zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30-martda Butun o`zbek Sovetlari ikkinchi sezdida qabul qilingan. Poytaxti Samarqand shahrida bo`lgan va tarkibiga Tojikiston ASSR ham kirgan O`zbekiston SSR «ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati» deb e`lon qilinadi, bunda «butun hokimiyat ishchilar, dehqonlar va Qizil Armiya deputatlari sovetlariga tegishli» ekani belgilanadi. O`zbekiston SSSRning birinchi Konstitutsiyasi 10 yil davomida — 1937 yilgacha amal qiladi.



3.1937-yilning 14-fevral kuni O'zbekiston SSRning ikkinchi konstitutsiyasi qabul qilinadi. SSSRning 1936-yilda qabul qilingan konstitutsiyasini so'zma-so'z takrorlagan.

4.1978-yilda O'zSSRning uchinchi konstitutsiyasi qabul qilinadi. O'zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15-aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida konstitutsiya loyihasini SSSRning 1977-yil 7-oktyabrida amalga kiritilgan konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib, ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritildi va 19-aprel kuni qabul qilindi.

5.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yilda qabul qilingan. 1990-1992 yillarda O'zbekistonning 1978-yilgi Konstitutsiyasiga 100 dan ortiq o'ta muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya taraqqiyotimizning talablariga javob beradigan, hayot sinovidan o'tgan, 1990-1991 yillarda joriy qilingan qator yangi Konstitutsiyaviy qoidalarni Asosiy qonun loyihasiga kiritdi.

Turkiston ASSR Konstitutsiyasi ham aniq ifodalangan sinfiy mazmunga ega bo'lib, unda o'lka xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining milliy o'ziga xosligi, huquqiy himoyasi o'z aksini mutlaqo topmagan edi. Mazkur konstitutsiya talabi bo'yicha, «mehnatsiz daromad» hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildi. Shu tarzda, qonun yo'li bilan Turkiston jamiyatining ko'pgina ijtimoiy tabaqalari va guruhlar davlatni boshqarishda qatnashish huquqidan chetlatilgan edi.

1927-yildagi Konstitutsiyaga muvofik «mexnatlash bo'lmagan» qatlamlardan chiqqan ko'pgina ijtimoiy tabaqalar, dindorlar va boshqalar saylov huquqlaridan mahrum etildi. Bu bilan aholining anchagina qismi kommunistik rejim tomonidan davlat qurilishida va ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishdan chetlashtirilgan edi. Faqat oradan 10 yil utgandan keyingina, O'zbekiston SSRning 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasi asosida 1937-yil 12-fevralda qabul qilingan Konstitutsiyasida bu o'taketganlikka chek qo'yildi, barcha fuqarolarga ularning ijtimoiy kelib chiqishi va qaysi sinfga mansubligidan qat'i nazar, saylov huquqlari berildi. Biroq 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi va 1937-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining ko'pgina moddalari, ayniqsa fuqarolarning keng



huquqlarilari va erkinliklari e'lon qilingan moddalari, vaqt o'tishitishi bilan soxta ekanligi ko`rinib qoldi.

Bundan ko`rinib turibdiki, ajdodlarimiz bugungi kundagi kabi o`z kelajaklari uchun o`zlari davlat rahbarlarini yoki Kengash deputatlarini saylash huquqlariga ega bo`lmaganlar.

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng esa, albatta, bu qaramliklar, hudbinliklardan xalos bo`ldik va 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII – bobi 117-moddasida belgilab qo'yilganidek “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi”.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Referendumda barcha o'z kelajagiga befarq bo'lmagan insonlar faol ishtirok etdilar.

Adabiyotlar ro`yxati

- 1.O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. *“Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent* Toshkent 2000
2. Q.Usmonov, M. Sodiqov *“Sharq» Nashriyot-Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi* Toshkent 2010
- 3.<https://shosh.uz/uz/o-zbekiston-respublikasi-1991-yilgacha-o-zssr-konstitutsiyalari-tarixiga-bir-nazar/>
- 4.https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiston_Avtonom_Sovet_Sotsialistik_Respublikasi
- 5.https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston_Sovet_Sotsialistik_Respublikasi
7. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/m10159>